

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TABIIY MONOPOL KORXONALAR FAOLIYATIDA RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH

Umarova Irodaxon Nuraliyevna
Alfraganus university o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy monopoliyalar faoliyatida raqobat muhitini shakllantirish masalasi keng qamrovda tahlil etilgan. Tabiiy monopol sohalardagi raqobat yetishmasligi oqibatida vujudga keladigan iqtisodiy samarasizlik, xizmat sifati pastligi va ijtimoiy adolatning buzilishi kabi muammolar ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Tabiiy monopol tarmoqlarda samaradorlikni oshirish, davlat xarajatlarini optimallashtirish va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kompleks strategiya ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy monopoliya, raqobat muhiti, tartibga solinuvchi raqobat, infratuzilmaviy islohot, samaradorlik, iqtisodiy islohotlar, regulyator organlar, jamoatchilik nazorati, bozor mexanizmlari.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрен вопрос формирования конкурентной среды в деятельности естественных монополий. Такие проблемы, как экономическая неэффективность, низкое качество услуг и нарушение социальной справедливости, вызванные отсутствием конкуренции в отраслях естественных монополий, рассматривались на научной основе. В отраслях естественных монополий разработана комплексная стратегия, направленная на повышение эффективности, оптимизацию государственных расходов и защиту интересов потребителей.

Ключевые слова: естественная монополия, конкурентная среда, регулируемая конкуренция, инфраструктурная реформа, эффективность, экономические реформы, регулирующие органы, общественный контроль, рыночные механизмы.

Annotation. In this article, the issue of the formation of a competitive environment in the activities of natural monopolies is widely analyzed. Problems such as economic inefficiency, low quality of Service, and social justice disruption caused by a lack of competition in natural monopoly areas have been addressed on a scientific basis. In natural monopoly networks, a comprehensive strategy has been developed aimed at improving efficiency, optimizing government spending and protecting consumer interests.

Keywords: natural monopoly, competitive environment, regulated competition, infrastructural reform, efficiency, economic reform, regulatory bodies, public control, market mechanisms.

Kirish. Har qanday bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun raqobat muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Raqobat orqali narxlar shaffoflashadi, resurslar samarali taqsimlanadi, ishlab chiqaruvchilar mijozlar

talablariga javob berishga intilgan holda sifatni oshiradi va texnologiyalarni joriy etadi. Shu bois, iqtisodiyotda barqaror o'sishga erishish, ijtimoiy farovonlikni oshirish va bozor mexanizmlarini to'g'ri shakllantirishda raqobatning mavjudligi asosiy mezonlardan biri sanaladi. Biroq, ba'zi sohalar shunday xususiyatga egakki, ularda raqobatni to'liq ta'minlash texnik va iqtisodiy jihatdan murakkab yoki hatto mumkin emas. Bunday sohalar qatoriga elektr energiyasi ta'minoti, tabiiy gaz, markazlashtirilgan issiqlik, temir yo'l transporti, ichimlik suvi va kanalizatsiya kabi infratuzilmaviy tarmoqlar kiradi. Ushbu sohalarda katta kapitaloyomlilik, yuqori infratuzilmaviy xarajatlar va alternativ tarmoq qurishning iqtisodiy samarasizligi sababli, ko'p hollarda faqat bitta xizmat ko'rsatuvchi sub'ekt faoliyat yuritadi. Bunday holatda bu korxonalar «tabiiy monopoliya» deb e'tirof etiladi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, davlat aktivlarini xususiylashtirish, strategik sohalarni bozor mexanizmlari asosida qayta tashkil qilish, raqobatni rag'batlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari tabiiy monopoliyalarga ham bevosita taalluqlidir. 2020 yildan boshlab, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Tabiiy monopoliyalar bo'yicha agentlik va boshqa tegishli tuzilmalar bu sohada huquqiy-tashkiliy asoslarni yangilashga kirishdi.

Bu jarayonda tabiiy monopol korxonalarning moliyaviy hisobotlari, tarif siyosatlar va investitsiya dasturlari ustidan nazoratni kuchaytirish, faoliyatni audit va shaffoflik mezonlariga asoslash, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali raqobat muhitini bosqichma-bosqich shakllantirish dolzarb vazifaga aylandi.

Tabiiy monopoliyalar har bir mamlakat iqtisodiyotining strategik negizlaridan biri hisoblanadi. Ular, avvalo, aholi turmush darajasi, ishlab chiqarish sub'ektlarining barqaror faoliyati va umumiy ijtimoiy infratuzilmaning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Shu bois, elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv ta'minoti, temir yo'l va aloqa xizmatlari kabi sohalarda faoliyat yurituvchi tabiiy monopol korxonalar davlat uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Lekin shu bilan birga, ushbu sohalarda raqobatning yetishmasligi, innovatsiyalarga rag'batning pastligi va narxlar nazoratining murakkabligi ular faoliyatida qator tizimli muammolarni keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning bozor mexanizmlariga asoslangan yangi modeli shakllanib borayotgan bir paytda, tabiiy monopoliyalarning mavjud tizimi isloh etishga muhtoj. Bugungi kunda ushbu sohada quyidagi muammolar dolzarb hisoblanadi: monopol korxonalarning tarif siyosati shaffof emas va xarajatlarni optimallashtirishga yo'naltirilmagan; texnologik yangilanish sekin kechmoqda, natijada xizmatlar sifatsiz va izchil emas; iste'molchilar huquqlari yetarli darajada himoya qilinmagan; davlat tomonidan nazorat kuchli bo'lsa-da, samaradorlik past bo'lib qolmoqda; korxonalarning hisob-kitoblari va investitsiya dasturlari ochiq emas, davlat mablag'larining sarflanishi ustidan jamoatchilik nazorati cheklangan.

Bu muammolarning mavjudligi monopoliyaning tabiatidan kelib chiqadigan xavflar bilan bog'liq bo'lib, ularni faqat ma'muriy nazorat bilan emas, balki raqobat unsurlarini joriy etish orqali bartaraf etish mumkin. Shu ma'noda, bugungi kunda

tabiiy monopoliyalar sohasida bozor mexanizmlarini qisman joriy qilish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, litsenziyalash tizimini qayta ko'rib chiqish va xizmatlardan umumfoydalanish infratuzilmasini yaratish orqali raqobat muhitini shakllantirish zarur bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tabiiy monopoliyalar va ularda raqobatni shakllantirish masalasi jahon iqtisodiy adabiyotida keng o'rganilgan. Bu sohadagi ilmiy qarashlar asosan tabiiy monopoliyaning iqtisodiy xususiyatlari, samaradorlik muammolari va davlatning tartibga soluvchi roli atrofida shakllangan.

A.Smit o'zining mashhur «Millatlar boyligi» asarida erkin bozorni samarali resurs taqsimotining asosi sifatida talqin qilgan bo'lsa-da, u muayyan holatlarda davlatning aralashuvini ham oqlagan.[1] Unga ko'ra, tabiiy monopoliyalar kabi sohalarda davlatning ishtiroki - umumiy manfaatni ta'minlash uchun zarur.

J.Stiglis tomonidan, tabiiy monopoliyalar faoliyatida davlat nazorati va raqobat unsurlarining muvozanatda bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, «erkin bozor» tushunchasi tabiiy monopol tarmoqlarga to'liq tatbiq etilmaydi, chunki bu tarmoqlarda samarali raqobat uchun texnik imkoniyatlar cheklangan. Stiglis sohada «tarif tartibga solinishi, xizmat ko'rsatish sifatini normativlashtirish va xususiy operatorlarning nazorat ostidagi ishtiroki» orqali nisbiy raqobat muhitini yaratishni taklif qilgan.[2]

J.Baumol, Dj.Panser va R.Villg tomonidan «kontestabillik nazariyasi» orqali monopoliyalar bozorida tashqi raqobat tahdidi orqali samaradorlikka erishish mumkinligini asoslab berishgan. Ularga ko'ra, tabiiy monopol bozor ham, agar unga kirish va chiqish to'siqlari olib tashlansa, «potensial raqobat» muhitini yaratishi mumkin.[3]

P.Samuelsan esa tabiiy monopoliyalarda davlat ishtirokining faqat moliyaviy emas, balki institutsional va nazorat funksiyasiga e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatadi. Uning fikricha, davlat - «so'nggi instansiyadagi ta'minlovchi» sifatida harakat qilishi mumkin, ammo xizmatlar ko'rsatishda raqobat unsurlari bo'lmagan sohalarda innovatsion salohiyat past bo'ladi.[4]

Mahalliy olimlar orasida Sh.Nazarov tomonidan tabiiy monopoliyalar samaradorligini oshirish uchun ularni «birlashtirish va markazlashtirish emas, balki qisman vertikal parchalash» taktikasini qo'llashni taklif qilgan. Uning fikriga ko'ra, tabiiy monopoliya sohasida xizmat ko'rsatish va infratuzilmani boshqarish funksiyalarini ajratish orqali raqobat imkoniyatlari yaratilishi mumkin.[5]

R.Qurbonov esa tabiiy monopol sub'ektlarning investitsiya dasturlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xizmat narxlarining hisob-kitobini ommaviy ochiq lashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali raqobatni joriy etishni asoslaydi.[6] Uning tadqiqotida, O'zbekistonda tabiiy monopoliyalar faoliyatida «noma'lum xarajatlar» ulushi yuqori bo'lgani va tarif siyosatining iqtisodiy asoslardan ko'ra ma'muriy qarorlarga bog'liq ekanligi qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tabiiy monopol korxonalar korxonalar faoliyatida raqobat muhitini shakllantirish yo'llarini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy jihatdan taqqoslash, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy

abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tabiiy monopoliyalarning iqtisodiyotdagi mavjudligi muayyan foydani keltirsa-da, ular faoliyatini samarali boshqarmaslik va zaruriy tartibga solish choralari ko‘rilmaslik sharoitida qator jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan: iste’molchilar uchun sifatsiz xizmat va yuqori tariflar; raqobatning yo‘qligi sababli innovatsion yangiliklarni joriy etmaslik; resurslarni samarasiz taqsimlash; budget mablag‘larining noo‘rin sarflanishi va shaffoflikning yetishmasligi.

1-jadval.

O‘zbekistonda energiya resurslaridan foydalanish va infratuzilma raqobat hamda tarif siyosatining omillari

Ko‘rsatkichlar	Ma’lumot	Izoh
Tabiiy gaz – umumiy energiya ta’minotidagi ulushi	85,8 %	Tabiiy gaz asosiy energiya manbai – bu yetarli raqobat muhitining mavjud emasligiga dalil
Elektr energiyasida tabiiy gaz ulushi	85 %	Elektr yetkazib berish tarmog‘ida ham bir korxona raqobatsiz asosiy ta’minlovchi sanaladi
Energiya samaradorligi (har bir kishiga sarflangan energiya)	Jahon o‘rtachasidan -25% past	Enterprizlar va uy-xo‘jaliklarda energiya sifatidagi samaradorlik stimullari yetishmayapti
Islohotlar natijasi – gaz tarmoqini unbundling	UzbekNefteGaz → UzTransGaz, HududgazTaminot	Infratuzilma va boshqa xizmatlar funksiyasi ajratildi. Bu shaffoflik va raqobatni yaxshilash uchun asosiy qadam
Jahon tajribasi	OECD ta’kidlagan	Elektr, gaz, temir yo‘l kabi tarmoqlarda «for-the-market» raqobat samaradorlikka olib kelishi mumkin

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarning tahliliga ko‘ra:

- O‘zbekistonda infratuzilmaga nisbatan yuqori darajadagi davlat nazorati va arzon tariflar raqobatni cheklamoqda. Ushbu sharoitda energiyani samarali sarflashga hech qanday bozor stimullari yo‘q.

- Unbundling jarayoni tarkibidagi tarmoq va xizmatni ajratishi shaffoflikka yo‘l ochdi, bu o‘ziga xos tartibga solinuvchi raqobat jarayonini yaratishda birinchi qadam bo‘ldi.

- OECD ta’kidlaganidek, jahon amaliyotida tashqi tenderlar orqali muttasil raqobat sharoitini yaratish infratuzilmani samarali boshqarish uchun muhimdir.

Xulosa. Raqobatni tabiiy monopol tarmoqlarda to‘liq shaklda joriy etish amalda har doim ham mumkin emas. Biroq bu, mazkur tarmoqlarda bozor mexanizmlarini umuman tatbiq etib bo‘lmaydi degani emas. Aksincha, tartibga solinuvchi raqobat, xizmatlarni ajratish, tender va litsenziya tizimlari, xususiy operatorlarning cheklangan ishtirokini ta’minlash orqali samaradorlik va sifatni oshirish imkoni mavjud.

Xulosa sifatida quyidagi asosiy nuqtalarni qayd etish mumkin:

1. Tabiiy monopoliyalarda raqobat unsurlarini joriy etish - iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy shartidir. Bu raqobat to'liq emas, balki to'g'ri tartibga solingan, davlat nazoratidagi va bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashgan shaklda bo'lishi kerak.

2. O'zbekistonda tabiiy monopoliyalar sohasini transformatsiya qilish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, «Uzbekneftegaz» tarkibidan «Hududgazta'minot» va «Uztransgaz» korxonalarining ajratilishi, elektr energetikasida generatsiya va taqsimlash funksiyalarining ayrimlashtirilishi, kommunal sohalarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

3. Xalqaro amaliyotlar - jumladan, OESR, Yevropa Ittifoqi va Jahon banki tavsiyalari - shunga dalolat qiladiki, tabiiy monopoliya sohalarida «for-the-market» (bozor uchun kurash) modeli, narxlarni cheklash (price-cap), xizmatlarni ajratish (unbundling), va raqobat asosida operator tanlash mexanizmlari samarali natija beradi. O'zbekiston uchun bu modellarni milliy xususiyatlarga mos holda qo'llash muhimdir.

4. Institutsional islohotlar raqobat muhitini yaratishda hal qiluvchi omil bo'ladi. Mustaqil tartibga soluvchi organlar, shaffof tarif siyosatlari, hisobot berish tizimi, audit va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish tabiiy monopoliyalarni ochiq va hisobdor qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smith A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London.
2. Stiglitz J.E. (1989). Markets, Market Failures, and Development. American Economic Review.
3. Baumol W.J., Panzar, J.C., Willig, R.D. (1982). Contestable Markets and the Theory of Industry Structure. Harcourt Brace Jovanovich.
4. Samuelson P.A. & Nordhaus, W.D. (1993). Economics. McGraw-Hill.
5. Nazarov Sh. (2015). "Monopoliya va bozor munosabatlari." – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
6. Qurbonov R. (2020). Tabiiy monopoliya sub'ektlarini isloh qilishning iqtisodiy asoslari. – T.: TIF Milliy universiteti.